

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSION MUHIT VA UNING SALOHIIYATI

Karimova Xulkar Rahmonali qizi

JIDU P.h.D., katta o‘qituvchi

Otabekova Dilnoza Mirpo‘lat qizi

JIDU magistranti

dmirodilova2@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistondagi investitsiya muhitini har tomonlama tahlil qilish, xorijiy va mahalliy investorlarning imkoniyatlarini o'rganish tadqiq etilgan. Markaziy Osiyo chorrahasida joylashgan O'zbekiston so'nggi yillarda sarmoyalarni jalb etish, barqaror rivojlanishga ko'maklashish va iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish maqsadida muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirdi. Tadqiqotda investitsiya muhitining hozirgi holatini qayta ko'rib chiqish, investorlar duch kelishi mumkin bo'lgan asosiy imkoniyatlar va muammolarni aniqlash uchun ko'p o'lchovli yondashuv qo'llaniladi.

Kalit so'zi: O'zbekiston, investitsiya muhiti, iqtisodiy islohotlar, infratuzilmani rivojlantirish, huquqiy asoslar, imkoniyatlar, muammolar, amaliy tadqiqotlar.

Аннотация


В данной научной статье проведен комплексный анализ инвестиционного климата в Узбекистане, изучены возможности иностранных и отечественных инвесторов. Узбекистан, расположенный на перекрестке Центральной Азии, в последние годы провел важные экономические реформы с целью привлечения инвестиций, содействия устойчивому развитию и диверсификации своей экономики. В исследовании используется многомерный подход для пересмотра текущего состояния инвестиционного климата, выявления основных возможностей и проблем, с которыми могут столкнуться инвесторы.

Ключевые слова: Узбекистан, инвестиционный климат, экономические реформы, развитие инфраструктуры, правовые основы, возможности, проблемы, тематические исследования.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar boshqa rivojlanayotgan va ayniqsa rivojlangan mamlakatlardan texnologiya va kapitalni o'tkazish usuli hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning hozirgi muvaffaqiyatli iqtisodiy o'sishi texnologik taraqqiyotning rivojlangan mamlakatlar bilan "ushlab qolish effekti" bilan izohlanadi. So'nggi yillarda Yevro hududiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi sust rivojlanishni ko'rsatdi. Bu iqtisodiy o'sishni oshirishga hissa qo'shish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirishni

kuchaytirishga chaqiriqlarga olib keldi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga bog'liq sababiy ta'sirini aniqlash empirik jihatdan qiyin bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar nafaqat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishni ta'minlaydi, balki bilvosita iqtisodiy o'sishni ham rag'batlantirishi mumkin. boshqaruv bilimlari yoki texnologiyasini uzatish orqali. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan faol investitsiya siyosatiga bog'liq. Shu asosda davlatimizning raqobatbardoshligi va eng asosiysi, aholi farovonligi tubdan oshishi, yangi korxonalar va tarmoqlar, yangi ish o'rinlari yaratilishini, o'ylaymanki, tushuntirib o'tirishning hojati yo'q"¹. Faol va oqilona investitsiya siyosatining amalga oshirilishi va bu yo'ldagi vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy holati va taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar birinchi navbatda katalizator vazifasini bajaradi va o'sishni kuchaytiruvchi ta'sir yuqori sifatli infratuzilma yoki aholining ta'lim darajasi yuqori bo'lgan joylarda yuqori bo'ladi.

2023 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof hajmi 2022 yilga nisbatan 16 foizga kamayib, qariyb 2,2 mlrd dollarni tashkil etib, ularning kapitaldagi sof o'sishi 870 mln dollar, bosh kompaniyalardan olingan qarzlarning bo'yicha majburiyatlarning sof o'sishi 914 mln dollar hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) doirasidagi investitsiyalarning sof kamayishi 382 mln dollarga teng bo'ldi. Shuningdek, xorijiy investorlar tomonidan daromadlarning reinvestitsiya qilinishi 2022 yilga nisbatan 36 foizga kamayib, 786 mln dollarni tashkil etdi.




1-rasm. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibining o'zgarishi²

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalarini faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqi. 12 yanvar, 2018 yil. Toshkent.// www.press-service.uz.

² Markaziy bank ma'lumotlari asosida

2023 yilda portfel investitsiyalar manfiy saldosi nomoliyaviy tashkilotlar kapitaliga xorijiy portfel investitsiyalarning jalb qilinishi, shuningdek hukumat, tijorat banklari va boshqa korxonalar tomonidan chiqarilgan xalqaro obligatsiyalar uchun hisoblangan foizlar va “yashil” yevrobondlar hisobiga 995,4 mln dollar miqdorida shakllandi. Shu bilan birga, xorijdan jalb qilingan kredit va qarzlar joriy operatsiyalar hisobi taqchilligini moliyalashtirgan asosiy manbalardan bo‘lib, mazkur operatsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 57 foizga ko‘payib, 7,1 mlrd dollarni tashkil qildi. 2023 yil yakuniga ko‘ra sof xalqaro investitsiyaviy mavqei qisqarishiga qaramasdan, O‘zbekistonning “sof kreditor” mavqei saqlab qolindi. 2023 yilda jami chet el aktivlari hajmi 3 foizga ko‘payib, 84,9 mlrd dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, jami tashqi majburiyatlari hajmi 14 foizga ko‘payib, 72,5 mlrd dollarga yetdi. Mamlakatimiz sof xalqaro investitsiyaviy mavqei 2024 yil 1 yanvar holatiga 12,4 mlrd dollarni tashkil qildi. Xorijiy valyutadagi aktivlarning ko‘payishi va jahonda oltin narxining ijobiy tendensiya kuzatilishiga qaramasdan, sof xalqaro investitsiyaviy mavqeining pasayishi asosan davlat, bank va boshqa xususiy sektor korxonalarini tomonidan tashqi qarz va xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi hisobiga yuzaga keldi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiyaviy mavqei³

Umumiy tashqi qarz hajmi 22 foizga o‘tib, 2024 yil 1 yanvar holatiga 53,1 mlrd dollarga yetdi. Umumiy tashqi qarz tarkibida davlat sektorining ulushi 59 foizdan 56 foizgacha qisqargan bo‘lsa, xususiy sektor ulushi 41 foizdan 44 foizgacha oshdi.

Hukumat tomonidan hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini moliyalashtirish ko‘lamining ortishi, shuningdek xususiy sektorda asosan tijorat banklari, energetika sektori va iqtisodiyotning boshqa sektorlari korxonalarini tomonidan yangi qarzlarning jalb qilinishi hisobiga umumiy tashqi qarz bo‘yicha majburiyatlar 2023 yilda 9,5 mlrd dollarga ko‘paydi.

Hududlar kesimida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak 2021-yil birinchi chorak boshidagi statistik holatga ko‘ra Buxoro, Navoiy hamda Toshkent shahriga eng ko‘p investitsion

³ Markaziy bank ma’lumotlari asosida

oqim to'g'ri kelmoqda. Ammo keying yillardagi investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan chora tadbirlar hamda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida 2023 yilga kelib har bir hududda investitsion salohiyat va investitsion jozibadorlik ortib bormoqda. 2024 yilning birinchi choragida ham aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning eng ko'p miqdori Buxoro, Navoiy hamda Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda, ularning raqamlarda ko'rinishi mos ravishda 5169,5, 8401,6 hamda 5588,6 ga to'g'ri keladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvshi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorining eng kam ulushi 2023 yil holatiga Samarqand hamda Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

2024-yil 1 choragidagi Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar oqimining sezilarni darajada oshganligini ko'rishimiz mumkun. Hududlarning ko'plab qismida 1 choragining o'zidayoq investitsiya oqimi 1 000 000 so'mdan oshganligini ko'rishimiz mumkun. Misol ushun Qoraqalpog'iston Respublikasi 2130,8 mln so'm, Buxoro viloyatida 5169,5 mln so'm, Jizzax viloyatida 3042,6 mln so'm, Navoiy viloyatida 8401,6 mln so'm, Namangan viloyatida 2994,9 mln so'm, Samarqand viloyatida 1694,1 mln so'm, Surxondaryo viloyatida 2141,2 mln so'm, Sirdaryo viloyatida 2997,0 mln so'm, Toshkent viloyatida 4505,9 mln so'm hamda Toshkent shahrida 5588,6 mln so'mni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ushbu turdagi investitsiya oqimi 2024 yil 1 choragida holati boyisha eng ko'p investitsiya Navoiy viloyati hamda Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi⁴ga ko'ra, kelgusi 5 yilda iqtisodiyotga \$70 mlrd miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda 2026-yilga borib, eksport hajmini \$30 mlrd.ga yetkazish maqsad qilingan. Bunda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, ularning eksport faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega, deya ta'kidlanadi PMTI tahlilida.

Davlat rahbari xorijiy investorlar bilan ishlashni tashkil etishning quyidagi tartibini belgilab berdi:

- 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga ko'ra, kelgusi 5 yilda iqtisodiyotga \$70 mlrd miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda 2026-yilga borib, eksport hajmini \$30 mlrd.ga yetkazish maqsad qilingan.

- Bunda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonini oshirish, ularning eksport faoliyatini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega, deya ta'kidlanadi PMTI tahlilida.

- Davlat rahbari xorijiy investorlar bilan ishlashni tashkil etishning quyidagi tartibini belgilab berdi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son

[PF-60-coH 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida \(lex.uz\)](http://www.lex.uz)

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida Xorijiy investorlar kengashi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan Investorlarning huquqini himoya qilish qo‘mitasini tashkil etilishi belgilangan.

Investitsiya kiritayotgan 50 dan ortiq mamlakatdan Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya yetakshilik qilmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohalariga to‘g‘ri keladi. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda rasman band aholining 6%i faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarining ishlab shiqarishdagi ulushi 15%ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24%ni tashkil etadi.

Bunday korxonalar mamlakatdagi jami korxonalarining 2,5%ini tashkil etishiga qaramay, 2021-yili tashqi savdo aylanmasining 19,8%i, eksport va importning mos ravishda 19,7%i va 25%i ularning hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Statistik tahlilni o‘tkazish maqsadlarida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar quyidagi asosiy kesimlarda shakllanadi:

- qo‘yilma turlari,
- texnologik,
- takror ishlab shiqarish tarkiblari,
- iqtisodiy faoliyat turlari,
- moliyalashtirish manbalari bo‘yicha.

So‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan investitsion islohotlar hamda xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibiga ko‘ra ulushi quyidagi holatda ko‘rishimiz mumkin.

- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,9 trln, so‘mni yoki, 2022-yilning mos davriga nisbatan 136,8 % ni tashkil etdi;

- O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 2,0 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi;

- Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,2 trln, so‘mni yoki, 2022-yilga nisbatan 75,2 % ni tashkil etdi.




3-rasm. Mamlakatimizda asosiy xorijiy investitsiya ulushiga ega bo'lgan hamkor davlatlar⁵

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali. Mamlakatimizda yuqori ulushga ega bo'lgan 10 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % dagi ulushi.

Binobarin, mamlakatimizda olib borilayotgan barcha investitsion islohotlarning umumiy negizi iqtisodiyotning turli sohasini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Quyidagi berilgan grafikda mamlakatizga xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimotini ko'rishimiz mumkin.

⁵ O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi "O'zbekiston respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar" risola. 20.04.2024. Lex.uz.



4-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari boyisha taqsimoti⁶

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 14,1 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,1 % ini qayd etdi. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi (40%ga yaqini) ishlab shiqarish sanoatiga yo'naltirilmogda, buning asosiy sabablaridan biri hududlarda mavjud imkoniyatlarni yanada kuchaytirish hamda iqtisodiyotning turli hil sohalarini rivojlantirgan holatda hududlarda ishsizlikni kamaytirish, aholi turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan.

Ikkinshi o'rinda esa bugungi kun iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan bo'lgan elektr, gaz bilan ta'minlashga qaratilgan xorijiy investitsiyalar hisoblanadi. Shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki bugungi kunda mamlakatiizda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalarini salmog'ini umumiy energiya salmog'ida ulushini oshirish hamda kam uglerodli energiya tarmoqlarini kuchaytirishga xorijiy investitsiya oqimlarini kuchaytirish asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlarida mavjud bo'lgan sohalariga yo'naltirilgan eng kam ulushi bu qurilish va sog'liqni saqlash sohasi hisoblanadi. Axborot va aloqa sohasiga 1,5% hamda sog'liqni saqlash tarmog'iga 1,5% xorijiy investitsiyalar va tizimlar yo'naltiriladi.

O'zbekiston ushbu chora-tadbirlarning samarali bo'lishini va xorijiy investorlar mamlakatni maqbul variant deb hisoblashini ta'minlash uchun yana nima qilishi mumkinligini ko'rib chiqishga harakat qildi. Turli tavsiyalar amaldagi va potentsial

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi statistik ahborotnomasi.

<https://stat.uz/uz>

xorijiy investorlarni tashvishga solayotgan va O‘zbekistondagi umumiy investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Agar bu chora-tadbirlar haqiqatan ham amalga oshirilsa, O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining joriy sur‘atini tezlashtirish uchun salmoqli salohiyatga ega. 11-sentabr kabi jahonda ro‘y berayotgan voqealar va Afg‘onistondagi davom etayotgan vaziyatni hisobga olsak, global sarmoyaviy muhit yanada xavfli muhitga aylanib bormoqda. Bunday paytlarda investorlar xavfni minimallashtirishga va kapitalni saqlab qolishga intilishadi, shuning uchun ular barqaror va xavfsiz investitsiyalar foydasiga rivojlanayotgan mamlakatlarga xavfliroq investitsiyalardan qochishga moyildirlar. Buni 2001 yilda jahon to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi ketma-ket ikkinchi yil 793 milliard dollargacha kamaygani va rivojlanayotgan mamlakatlar nisbatan yuqori potentsial daromad keltirishiga qaramay, 8 foizga qisqarganligidan dalolat beradi. Bu O‘zbekiston uchun juda achinarli, chunki qisqa muddatda umumiy investitsiyalar qisqarishi kutilmoqda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar yanada tanlangan va qulay investitsion muhitga ega bo‘lgan mamlakatlarga ma‘qul bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston chet el sarmoyasini jalb qilish bo‘lsa, keyingi qadamni qo‘yish va ushbu siyosat choralari amalga oshirish vaqti keldi. Iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikning potentsial yutuqlarini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Statistika agentligi statistik ahborotnomasi. <https://stat.uz/uz>
2. O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi “O‘zbekiston respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar” risola. 20.04.2024. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida \(lex.uz\)](#)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqi. 12 yanvar, 2018 yil. Toshkent.// www.press-service.uz.
5. G‘ozibekov D.G‘., Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: «Iqtisod-moliya», 2007. – 92 b.;
6. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qo‘llanma. – Toshkent:Baktria press,2017.-320 b.;